

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TURLI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA QISHLOQ
XO‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH
VA O‘SIMLIKLARNI HIMOYA QILISHDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR**

**mavzusidagi
Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman**

MATERIALLARI

Buxoro, 2023-yil 12-dekabr

BUXORO – 2023

9. Мирзаева Гулчера Сотиволдиевна, Абдуганиев Назиржон Набижанович, Тешабаев Абдувахоб Маърифович. (2022). ВЛИЯНИЕ ОТРАБОТАННЫХ СТОЧНЫХ ВОД НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ. *Conference Zone*, 1–23. Retrieved from <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/828>
11. Мирзаева Гульчехра Сотиволдиевна, Жалилов Лутфиер Сотволдиевич, Абдуганиев Назиржон Набижонович, & Дадакузиев Музаффар Рахномоевич (2019). Проблема экологии при утилизации строительных материалов на примере интенсификации строительства в Узбекистане. *Universum: технические науки*, (12-1 (69)), 62-64.

TUPROQNING SHO‘RLANISH TIPI VA DARAJASI (G‘ijdivon tumani sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar sharoitida)

Salimova H.X., Artikova H.T., Baxtiyorova Sh.Sh.

Buxoro davlat universiteti

Annotasiya. Sho‘rlangan tuproqlar haqida, sho‘rlanish tipi, respublikamizda ularning maydoni, jumladan Buxoro viloyati G‘ijdivon tumanida sho‘rlangan tuproqlar maydoni haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar sho‘rlanmagan bo‘lib, 1 metrli qatlamdan boshlab kuchsiz sho‘rlanish mavjudligi bo‘yicha ma‘ulotlar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Tuproq, sug‘oriladigan tuproq, sho‘rlanish, sho‘rlanish tipi, sho‘rlanish darajasi,

Kirish. Suvda oson eriydigan qishloq xo‘jalik ekinlariga zararli ta‘sir ko‘rsatuvchi tuzlar saqlaydigan tuproqlar sho‘rlangan, ya‘ni suvli so‘rimdagi quruq qoldiq miqdori 0,25% (0,3%) dan ko‘p bo‘lgan tuproqlar. Sho‘rlangan tuproqlar, asosan, quruq dasht, chala cho‘l va cho‘l iqlimli mamlakatlarda katta maydonlarni egallaydi. Sho‘rlangan tuproqlar kimyoviy tarkibi (sho‘rlanish tipi)ga ko‘ra xloridli, sulfat-xloridli, xlorid-sulfatli, sulfatli, soda-sulfatli, sulfat-sodali, xlorid-sodali, sodali, sulfat yoki xlorid-gidrokarbonatli (ishqoriy yer elementlari) sho‘rlangan yerlarga bo‘linadi.

2015 yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, butun dunyo bo‘yicha sho‘rlangan tuproqlarning umumiy maydoni 950 mln ga tashkil etgan bo‘lib, shunda O‘zbekiston Respublikasida jami 20,8 mln ga (umumiy maydonning 46,5 %) tashkil etgan [4].


2020 yil BMT ning FAO bo‘limi ma‘lumotlariga ko‘ra Respublikamizdaning umumiy maydonining 51 % turli darajada sho‘rlangan [4]. Sho‘rlangan tuproqlar maydoni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi birinchi o‘rinda (353,3 ming ga.), Sirdaryo viloyatida ikkinchi o‘rinda (272,5 ming ga.), Xorazm viloyati (258,4 ming ga.) 3 o‘rinda bo‘lsa, Buxoro viloyati esa 4 o‘rinda (231,1 ming ga) turibdi [2.,-8].

So‘nggi yillarda butun dunyo bo‘yicha, jumladan respublikamizda tuproqlarni sho‘rlanishini oldini olish, tuproqning meliorativ xolatini yaxshilash, degradasiya va unga qarshi kurash bo‘yicha ko‘p amaliy ishlar amalga oshirilmog‘da [1]. Joriy yilda Global tuproq hamkorligi (GSP), Yevroosiyo tuproq hamkorligi (EASP) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Toshkent va Nukus shaharlarida sho‘rlangan tuproqlar xalqaro tarmog‘i (INSAS)ning ikkinchi yig‘ilishi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ko‘magida «Sho‘rlanishni to‘xtatish – tuproq unumdorligini oshirish» mavzusida sho‘rlangan tuproqlar bo‘yicha Global simpozium o‘tkazildi. Hozirgi vaqtda, tuproqlar meliorativ holatini yaxshilash, sho‘rlanishni kamaytirish, degradasiya va unga qarshi kurash, tuproq unumdorligini oshirish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha resurstejamkor texnologiya va texnikalarini yaratish va keng joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot usullari. Uzoq yillardan buyon Buxoro viloyatida tarqalgan sug‘oriladigan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash, sho‘rlangan tuproqlar melioratsiyasi, tuproqlar evolyusiyasi, fizik – mexanik xossalari, suv-fizik xossalari yaxshilash, tuproqlardan xossa va xususiyatlariga antropogen omillarning ta‘siri hamda tuproqlardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmog‘da [3.,-52]. Dala va laboratoriya tadqiqotlarida tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublardan foydalanilgan. Olingan ma‘lumotlar matematik, statistik va dispersion tahlillar qilingan.

Olingan ma‘lumotlar tahlili. Buxoro viloyatida jami sug‘oriladigan yerlarning maydoni 276,3 ming hektarni tashkil etadi, shundan 206,3 ming hektari turli darajada sho‘rlangan maydonlar hisoblanadi. G‘ijdivon tumanida sug‘oriladigan yerlarning 79 % sho‘rlanmagan, 11,5 % kuchsiz, 2,5 % o‘rtacha va 7 % kuchli sho‘rlangan hisoblanadi. Olingan ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida (“Omad” fermer xo‘jaligi) tuproq kesmasi kovlandi. 1 raqamli kesmadan tuproq

namunalari olinib, laboratoriyada sho‘rlanish tipi va darajasini aniqlash uchun tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, 0-29 sm qatlamda quruq qoldiq miqdori 0,295 % ni tashkil etdi. Tuproq chuqurlashib borgan sari quruq qoldiq miqdori deyarli bir xil bo‘ldi, ammo eng pastki (103-115 sm) qatlamda quruq qoldiq miqdori 0,413 % ni tashkil etganligi aniqlandi. Tuproqning 0 – 103 sm qatlamida tuproq sho‘rlanmagan bo‘lib, eng pastki qatlam kuchsiz sho‘rlangan tuproq tipiga mansub ekanligi aniqlandi (1 - rasm).



1 – rasm. Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproq tarkibiagi quruq modda miqdori. (G‘ijduvon tumani H. Olimjon hududi “Omad” fermer xo‘jaligi)

Xulosa. Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlari sho‘rlanmagan, ammo tuproqning pastki (1,0 dan keyingi) qatlamlarida kuchsiz sho‘rlangan bo‘lib, ularni qishloq xo‘jaligida foydalanishda alohida e‘tibor berib ilmiy tavsiyalar bo‘yicha foydalanish, sug‘orishning yangi texnologiyalarini joriy etish lozim. Qo‘llanilidan mineral va organik o‘g‘itlarni ekin turi va qo‘llash muddat va me‘yorlariga ham rioya etish talab etiladi. Aks holda tuproqning ikkilamchi sho‘rlanishga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 10 июнь ПҚ-277-сонли «Ерлар деградациясига қарши курашишнинг самарали тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. <https://lex.uz/uz/docs/6058690>
2. Артикова Х.Т., Каримов Э.Қ., Назарова С.М. Салимова Х.Х. Бухоро воҳаси шўрланган тупроқлари ва уларнинг ҳолатини яхшилаш. “Хоразм Маъмун Академияси ахборотномаси”. Журнал. №3/2017 (сентябр) б.7- 10.
3. Artikova H.T., Salimova H.X.. Buxoro viloyati sug‘oriladigan tuproqlarning meliorativ holati va unga ta’sir etuvchi omillar. Xorazm Ma’mun Akademiyasi axborotnomasi. –Xorazm, - 2021. - №8, - Б. 52.
4. <https://gruntovozov.ru/chasto-zadavayemiye-voprosy/vidyi-pochv-klassifi-katsiya/tipyi-pochv-zonalnaya-klassifikatsiya-po-prirodnym-zonam/intrazonalnyie-pochvyi/zasolennyie-pochvyi/>

МИНИТРАКТОР УЧУН ПЛУГ КОРПУСИ ҚАМРОВ КЕНГЛИГИНИ НАЗАРИЙ АНИҚЛАШ

**Худайбердиев Тохиржон Латифович., Орифжонов Достон Тўлқинбой ўғли,
Саидахмадова Мехрўза Сайдулла.**

Наманган муҳандислик-технология институти

Аннотация: Мақолада богдорчилик ва узумчилик ишларига мўлжалланган “Богбон” номли занжирли минитрактори учун мўлжалланган осма плуг ағдаргичининг қамров кенглигини асослаш

Nematov Xurshid Mamadullayevich. TOSHKENT-TERMIZ AVTOMOBIL YO'LIGA YAQIN TUPROQLARNI QO'RG'OSHIN (Pb) BILAN ZARARLANISHI.	49
Nizomitdinova Ma'rifatxon Shoirjon qizi., Haydarov Mavlonjon Mashrabovich. NEFT MAHSULOTLARINING TUPROQ BIOTASIGA TA'SIRI	50
Sobirov Anvarjon Odilovich. QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI ATROF MUHITGA TA'SIRI VA ULARNI JOYLASHTIRISH.	52
Каюмов Одилжон Абдурауфович., Хасанбоева Камола Исроил Қизи. СУҒОРИЛАДИГАН ТИПИК БЎЗ ТУПРОҚЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ХОЛАТИ.....	53
А.И. Ахмедов, О.Б. Шарипов, Шадиева. С.С, А.Х. Зойиров. БУХОРО ВИЛОЯТИ ТУПРОҚ ИҚЛИМИ ШАРОИТИДА РАПС ЕТИШТИРИШ ВА УНИНГ ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ	56
Burhanova N.H., Axmedov A.U., Turdaliyev J.M. BUXORO VILOYATI SUG'ORILADIGAN CHO'L O'TLOQI-ALLYUVIAL TUPROQLARINING MORFOGENETIK XUSUSIYATLARI.....	58
Tillabayev Boburjon Shavkatjon o'g'li. TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHISH VA PASAYISH SABABLARI	59
Xaydarov Bunyodbek Zokirjon o'g'li. TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA, NAMLIKNI NAZORAT QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	61
Turdaliyeva Nozimaxon Lutfillo qizi. RADIOAKTIV CHIQINDILARNI SAQLASH VA BARTARAF QILISH MUAMMOLARI.	63
Сатторова Б.Н. Турсуналиева Ф.Б. ОРГАНИЗАЦИЯ РАЗУМНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНЫ ЗЕМЛИ	65
Сатторова Б.Н., Турсуналиева Ф.Б. ПОВЫШЕНИЕ ПРОДУКТИВНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР И ОРГАНИЧЕСКИХ ПРИ УЛУЧШЕНИИ МЕЛИОРАТИВНОГО СОСТОЯНИЯ ПОЧВ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УДОБРЕНИЙ	66
Umarqulova Barchinoy Nematovna. TUPROQLAR UNUMDORLIGINI OSHIRISH.....	68
Urishev Murodjon Musurmonqul o'g'li. ARRALI JIN PD TA'MINLAGICHINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI UNUMDORLIKNI OSHIRISH	70
Yokubov Sherzodbek Shavkat o'g'li, Mamasodiqova Xusnigul Qaxramonjon Qizi. MARKAZIY FARG'ONA QUMLI TUPROQLAR HUDUDIDA SUG'ORMA DEHQONCHILIKNING TUPROQLAR HOLATIGA TA'SIRI.	72
Xalilova Dildora Jaxongirovna. DEHQONCHILIKNING ASOSIY QONUNLARIDAN FOYDALANIB TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISH.....	74
Xomidova Qalbinur Nosirjon qizi. MARKAZIY OSIYODAGI RADIATSIYAVIY XAVFLI OB'EKTLAR	76
Abdukadirova Muxarram Arabboyevna, Yoqubov Yusufjon Azamjon O'g'li. TUPROQLAR BONITIROVKASI VA UNING ANAMIYATI.	77
Абдрахимова Раъно Акбарали кизи. УЛУЧШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ПОЧВЫ ПУТЕМ РАЗРАБОТКИ ЭКСПРЕСС-МЕТОДОВ ДЛЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ СВИНЦА.....	79
Алляров Латиф Камолович. ҒЎЗА НАВЛАРИ ПОПУЛЯЦИЯСИ ЎЗ-ЎЗИНИ ХИМОЯ ҚИЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА БИОКИМЎВИЙ MAS ТЕХНОЛОГИЯСИ	82
Юсупова Моҳидил Абдумуталибовна. ЕНГИЛ МЕХАНИК ТАРКИБЛИ ТУПРОҚЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ.....	85
Tursumatova Shahlo. TUPROQLARNING UMUMFIZIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARI	87
L.S. Jalilov. TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA EKISH USULLARI VA OZIQLANTIRISH TARTIBLARINI (PAHTA HOSILDORLIGIGA) TA'SIRI.....	88
Г.М.Мирзакаримова., З.Б.Қосимова. ПОЧВЫ УЗБЕКИСТАНА.....	90
Игамбердиева Дилфуза Алимовна. РЕЛЬЕФ ТУПРОҚ ЭРОЗИЯСИНИНГ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ АСОСИЙ ОМИЛДИР	92
Ibragimov Lochinbek Abduraxmonovich. TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISH	93
А.Ж.Исмонов, Г.Н.Каттаева, Ў.Х.Мамажанова, А.Т.Дўсалиев. ОРОЛ ДЕНГИЗИ ҚУРИГАН ТУБИДА ШАКЛЛАНГАН ШЎРХОКЛАРНИНГ МОРФОГЕНЕТИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	96
Абдуганиев Назиржон Набижонович, Носиров Оятилло Ибайдулло угли. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОТХОДОВ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД В КАЧЕСТВЕ ОРГАНИЧЕСКОГО УДОБРЕНИЯ ДЛЯ ПОЧВЫ	99
Salimova N.X., Artikova N.T., Vaxtiyorova Sh.Sh. TUPROQNING SHO'RLANISH TIPI VA DARAJASI (G'ijdivon tumani sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar sharoitida)	101